

3. Садовский В.Н. Основания общей теории систем. Логико-методологический анализ /; Отв. ред.: Уемов А.И. - М.: Наука, 1974. - 279 с.
4. Юдин Э.Г., Методология науки. Системность. Деятельность, М., «Эдиотриал УРСС» 1997, с. 412.
5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Политиздат, 1975.-304 с.
6. Гальперин П.Я. Введение в психологию: Учебное пособие для вузов . — М.: Книжный дом «Университет», 1999. - 332 с.
7. Хуторский А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. - М.: Изд-во МГУ, 2003. - 416 с.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. № 5.
9. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: Методические пособие СПб., 2006. С 5, 54-55.
10. Леднев В.С., Никандров Н.Д., Рыжаков М.В. Государственные образовательные стандарты в системе общего образования: теория и практика. М., 2002, С. 24.
11. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности. Смирнов С.Д. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Академия, 2005 - 400 с.

GEOGRAFIK OBYEKT LARGA OID TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**Isakulova N.J. - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori**

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografik obyektlarga oid terminlarni ingliz tilida o‘qitish metodikasi yoritilgan. Har bir bilim sohasining terminologiyasi kasbiy bilimlarning konseptual bogdanishlariga asoslanadi. Shuningdek, geografik obyektlarga oid toponimlarning xususiyatlari, turlari xilma-xilligi, ma’nosi, qo‘llanishi, mayllari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: geografik obyektlar, terminologiya, tarmoq terminologiyasi, kasbiy yo‘naltirilgan matnlar, toponim.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМИНОЛОГИИ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ

**Исакулова Н.Ж. - профессор Узбекского государственного
университета мировых языков доктор педагогических наук**

Аннотация. В данной статье описана методика преподавания терминов, связанных с географическими объектами, на английском языке. Терминология каждой области знаний основана на понятийных связях профессионального знания. Также были рассмотрены особенности, разнообразие типов, значение, применение и тенденции топонимов, связанных с географическими объектами.

Ключевые слова: географические объекты, терминология, терминология, отраслевая терминология, профессионально ориентированные тексты, топоним.

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF THE TERMINOLOGY OF GEOGRAPHICAL OBJECTS

Isakulova N.J. - professor-teacher of Uzbekistan State World Languages University doctor of pedagogical sciences

Annotation. This article describes the methodology of teaching terms related to geographical objects in English. The terminology of each field of knowledge is based on the conceptual connections of professional knowledge. Also, the characteristics, variety of types, meaning, use, and trends of toponyms related to geographical objects were considered.

Keywords: geographic objects, terminology, sectoral terminology, professionally oriented texts, toponym.

Terminologiya (termin va ... logiya) — 1) leksikanutg bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish. tarmog'ining , san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminiari majmui; 2) tilshunoslikning terminlami o'rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika. Masalan, fizika terminologiyasi, ijtimoiysiyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. O'z navbatida u, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim fannatik kategoriyalarning leksikallashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barkarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda

sinonimiya, omonimiya va kup ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich - chalaoTkazgich - nimoTkazgich terminlari qo'llanilmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish, o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega [1].

Termin grekcha terminus so'zidan olingan bo'lib, chek, chegara degan ma'noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasigachos so'z hisoblanadi. Terminologiya - terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmui degan ma'nolarni anglatadi. Termin so'zi o'mida ba'zan atama, istiloh so'zlarini ishlatish hollari uchray turadi. Ammo bu to'g'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so'zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me'yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'zmi va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi. Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. A.Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, "... terminlar - bu maxsus so'zlardir" degan xulosaga keladi [2].

Bugungi kunda qo'llanilayotgan terminlarning aksariyat qismi sohaviy terminlar hisoblanadi. Sohaviy terminologiyaning rivojlanishida mazkur soha mutaxassisarlari va tarjimonlarning roli muhim bo'lib, terminni qanday darajada bo'lishi terminning yaratilishiga muvofiqdir. Geografik obyektlarga oid terminlarning 3 ta asosiy guruhga ajratish mumkin:

sof terminlar: oronimlar, speleonimlar, xoronimlar, urbanonimlar, agoronimlar, godonimlar, doronimlar, oykonimlar, komonimlar, astionimlar, gidronimlar;

sohalararo terminlar: suv (kimyo, fizika, geografiya), shahar (tibbiyot, tabiiy fanlar, tarix), qishloq (tabiiy fanlar, tarix, adabiyot, tibbiyot), mahalla (tabiiy fanlar, tarix, adabiyot, tibbiyot, pedagogika), tog' (kimyo, fizika, geografiya).

umumiste'moldagi terminlar: suv, tog'. Boshqa ilmiy sohalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Geografik obyektlar(GO)ga oid terminlarni o'zbek va ingliz tillarida terminlar shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi davrida tilning ichki imkoniyatlari muhim

ahamiyatga ega. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda inglizcha GOga oid terminlari zaminida o'zbekcha ekvivalentlarini yaratish muhim. GOga oid terminlarning yasashida so'z yasash usullaridan foydalaniladi:

- affiksatsiya usuli;
- kompozitsiya usuli;
- abbreviatsiya usuli;
- konversiya usuli;
- leksik-semantik usul.

A.A.Reformatskiy ta'kidlashicha, terminologiyadagi guruhlanish fan yoki sohaning tizimidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi va alohida paradigmaticani hosil qiladi. O'zbek tilshunos olimi R.Doniyorov mavzuiy guruhlarini aniqlashning asosiy maqsadini quyidagicha ajratgan:

- 1) ohganilayotgan tizimning umumtermin boyligi haqida tasavur hosil qilish;
- 2) ohganilayotgan tizimning so'z yasash imkoniyatlari haqida ma'lumot berish;
- 3) ohganilayotgan tizimning har qaysi tematik guruhdagi o'ziga xos yasash modeli qanday ekanligini aniqlab berish [3; 31-32-b.J.

Geografiya sohasiga oid terminlarning mavzuiy guruhlarini quyidagicha ohgandik (1-jadvalga qarang):

1- jadval.

Geografiya sohasiga oid terminlarning mavzuiy guruhlari

№	Mavzuiy guruhlar	Terminlar
1.	Aholi punktlari turi	<i>area, capital, city, country, district, region, state, town village</i>
2.	Geografik nuqtalar	<i>cape, cliff, glacier, lull, mountain, mountain range / mountain chain, pass, peak, plain, plateau, summit, valley, volcano</i>
3.	Yeming turlari	<i>desert, equator, forest, highlands, jungle, lowlands , oasis, swamp, tropics, tundra.</i>
4.	Suv omborlari	<i>canal, lake, ocean, ocean current, pool /pond, river, sea, spring, stream</i>
5.	Sohil, qirg'oqlar	<i>bay, beach, coast, continent, estuary, gulf</i>

		<i>island, peninsula.</i>
6.	Qatag'onlar	<i>(volcanic) eruption, conflagration, earthquake, fire, flood, hurricane, tornado twister, tsunami</i>

CTzbekiston GOga oid terminlarning mavzuiy guruhlarini belgilashda O'zbekiston viloyatlari kesimida o'rgandik (2-jadvalga qarang):

2- jadval.

Geografik obyektlarga oid terminlarning mavzuiy guruhlari

№	GOga mavzuiy guruhlari	O'zbek tilida misollar	Ingliz tilida misollar
1.	Andijon viloyati	Abdubiy, Abdurahmon Mingboshi, Avangard, Avulmat	Abdubiy, Abdurahmon Mingboshi, Avangard, Avulmat
2.	Buxoro viloyati	Afshona, Bichoqchi, Buyrak, Burqut	Afshona, Bichoqchi, Buyrak, Burqut
3.	Farg'ona viloyati	Beshkapa, Beshsari, Beshtarak, Boltako'l	Beshkapa, Beshsari, Beshtarak, Boltakul
4.	Jizzax	Gulbahor, Tuzkon, Alamli, Baxmal	Gulbahor, Tuzkon, Alamli, Baxmal
5.	Xorazm	Bekenchilar, Gurlan, Ichanqala, Ko'nazey	Bekenchilar, Gurlan, Ichanqala, Kunazey
6.	Namangan	Anjirzor, Baliqko'l, Buloq, Varzigon	Anjirzor, Baliqkul, Buloq, Varzigon
7.	Navoi	Zambar, Karmana, Keriz, Nurota	Zambar, Karmana, Keriz, Nurota
8.	Samarqand	Boldir, Buransov, Galabotir, Davlatobod	Boldir, Burunsov, Galabotir, Davlatobod
9.	Qashqadaryo	Alaqarg'a, Varganza, Govxona, Dapsan	Alaqarga, Varganza, Govxona, Dapsan
10.	Surxondaryo	Jayilma, Jartepa, Zarabog', Ilonsoy	Jayilma, Jartepa, Zarabog, Ilonsoy

11.	Sirdaryo	Usmonobod, Qoraqishloq, Sho'ro'zak, To'qboy	Usmonobod, Qoraqishloq, Shuruzak, Tuqboy
12.	Toshkent viloyati va Toshkent shahri	Angren, Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, CHInoz, CHIrchiq	Angren, Bekobod, Buka, Bustonliq, CHInoz, CHIrchiq
13.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Ayteke, Badayto'qay, Beksiyiq, Yestek	Ayteke, Badaytuqay, Beksiyiq, Yestek

CXzbekiston GOga oid terminlarning mavzuiy guruhlarini belgilashda shahar, tuman, qishloq, mahallalar kesimida o'rgandik (3-j advalga qarang):

3- jadval.

Geografik obyektlarga oid terminlarning mavzuiy guruhlari

№	Shahar	Tuman	Qishloq	Mahalla
1.	Beruniy	Yeshkili	Burlaq	Zaxoki moron
2.	Ardaxushmitan	Xiva	Avshar	Nartibaland
3.	Namangan	Qo'shko'pir	Avsharbadoq	Balandariq
4.	Farg'ona	Xonqa	Ardaxiva	Beshbuloq
5.	Toshkent	To'raqo'rg'on	Axcha	Anjirzor

Lug'at materiallarini tahlil qilish jarayonida GO terminlarini har ikki tilda, ya'ni ingliz tilidagi asliyat shakli strkturasi va semantikasi o'zbek tilida yaratilgan shakl strukturasiga va ma'no mazmun jihatiga ko'ra qiyosiy tarzda o'rganib chiqdik. Har ikki tilda ham ushbu terminlar qatori shakl strkturasi ko'ra bir-biriga o'xshash jihatlari aniqlandi. Awalo, ingliz va o'zbek tillarida to'plangan GOga oid sohaviy terminlarni strkturasiga xos o'xshashligi tasnif etildi.

Ingliz tilida:

1) sodda (o'zak-so'z) terminlar: *Mashhad, Kalvak, Zang, Vodiy, Buloq, Bilol, Arbag 'ish*;

2) qo'shma terminlar: *Balandariq, Baliqko'l, Beshbuloq, Kosonsoy, Ko 'Ibuqon, Chorkesar, Marjonbuloq*;

3) gibrid qo'shma terminlar: *Sho'raqo'rg'on, Avg'onqishloq, Zargarguzar, Kampirchorbog Katmonchovdi*;

4) juft terminlar: *Soz-soy, cross-current, intra-annual, intra-seasonal*.

GO terminologiyasi tizimini lingvistik tadqiq etishda qo'shma terminlarning morfologik strukturasi yasalishi va material jihati umumiy asosda qo'shma so'zga nisbatan o'rganildi. Qo'shma terminlar yasallash materialiga ko'ra asosan quyidagi turlarga bodinadi:

1. Ot+Ot (N+N): *Kosonsoy, Kulbuqon, farmhouse, countryside*;
2. Sifat+Ot (Adj.+N): *Balandariq, Marjonbuloq, lighthouse, longitude, rainforest, highlands, earthquake*;
3. Son+Ot (Num.+N): *Beshbuloq, Chorkesar*;
4. Ot+Fe'l (N+V): *Katmonchovdi, livestock*.

Geografiya sohasiga od terminlar bir, ikki, uch, to'rt va ko'p komponentli so'zlardan tashkil etilishi o'rganildi. Ular quyidagichatasniflanadi:

bir komponentli terminlar: *area, wetlands, ground, sanctuary, zoning, variability, plant, position, support, facilities, flood, foothills*;

ikki komponentli terminlar: *airline hub, road transport, administrative unit, geographic range, water use, return migration, spring flood, geocryological survey, geocryological prospecting, geological survey, geoinformation mapping, hydropower scheme*;

uch komponentli terminlar: *inland water body, million plus city, freight railcar manufacturing, national power grid, restricted nature reserve, engineering geocryological survey, estate park complex, the northern hemisphere, the southern hemisphere, the mountain range*;

to'rt komponentli terminlar: *the former Soviet republics, beyond the Polar Circle, tourism and recreation resources, environmental and economic monitoring*;

ko'p komponentli terminlar: *unified transport and energy system, a subject of the Russian Federation, a region of the Russian Federation*.

Xulosa qilib aytganda, terminologiya ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlar nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Terminologiya. Elektron resurs: [Terminologiya - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Terminologiya). Murojaat sanasi: 18.03.22.
2. Terminologiya va til. Elektron resurs: [Til va terminologiya reja Til va terminologiya \(azkurs.org\)](https://azkurs.org/terminologiya). Murojaat sanasi: 18.03.22.
3. Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. - Тошкент: Фан ва технология, 2016. - 128 б. - Б. 31-32.